



Bo'riyeva Mahbuba,
*“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot
instituti kichik ilmiy xodimi*

OILADAGI ER-XOTIN EMOTSIONAL MUNOSABATLARINING O'ZBEK PSIXOLOGLARI TOMONIDAN O'RGANILISHI

Annotatsiya. *Maqolada o'zbek psixologlari tomonidan oilalardagi er-xotinning emotsional munosabatlarini o'rganish asosida o'tkazilgan tadqiqot natijalari taqdim etilgan. Bundan tashqari, maqolada er-xotinning oilaviy shaxslararo munosabatlarining barqarorligini ta'minlashda o'zaro hurmat va bir-birini tushunish hamda juftlik orasidagi ishonch va muammolar ochib berilgan.*

Аннотация. *В статье представлены результаты исследования, проведенного узбекскими психологами на основе изучения эмоциональных взаимоотношений супругов в семьях. Кроме того, в статье раскрываются взаимоуважение и взаимопонимание, а также доверие и проблемы между супругами в обеспечении стабильности семейных межличностных отношений.*

Annotation. *The article presents the results of a study conducted by Uzbek psychologists based on a study of the emotional relationships of spouses in families. In addition, the article reveals mutual respect and understanding, as well as trust and problems between spouses in ensuring stability in family interpersonal relationships.*

Tayanch so'zlar: *oila, tarbiya, munosabatlari, qadriyatlar, tadqiqot, simpatiya, nikoh, nikohdan qoniqqanlik, o'zaro hurmat, hissiy intilish, o'zaro tushunish.*

Ключевые слова: *семья, воспитание, отношения, ценности, исследование, симпатия, брак, удовлетворенность браком, взаимное уважение, эмоциональное желание, взаимопонимание.*

Keywords: *family, upbringing, relationships, values, research, sympathy, marriage, marital satisfaction, mutual respect, emotional desire, mutual understanding.*

Kirish. O‘zbek oilalaridagi milliy-madaniy va ijtimoiy-psixologik xususiyatlarni inobatga olmay turib, nikoh munosabatlarini, oilaviy turmush faoliyatini, uning barqarorligi va farovonligini maqsadga muvofiq ravishda tashkil etish va amalga oshirishning imkoni yo‘q. Bu holat uning asosiy vazifasi – farzand ko‘rish orqali aholini qayta tiklash, avlodlar davomiyligini barqarorlashtirish va insoniyat tarixiy taraqqiyotini ta‘minlash, urf-odatlarimizni saqlash va uni avlodlar avlodga o‘tkazishdek vazifani bajarish samarasini ham pasaytirib yuboradi.

Bugungi kunda yosh avlodni tarbiyalash hamda ularga oilaviy munosabatlar to‘g‘risida bilimlar berish asosiy dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Shuningdek, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda va turmush jarayonida yuzaga keladigan muammoli vaziyatlarning oldini olishda ularning asosiy ehtiyojlarini nimalar tashkil etishini motivlar belgilab beradi¹.

Maqsad va uni asoslash. O‘zbek olimlari tomonidan oiladagi er-xotin munosabatlarining turli ijtimoiy-psixologik jihatlari o‘rganilgan. Jumladan, Y.A.Yakubov tomonidan o‘zbek oilalaridagi er-xotin munosabatlarining ijtimoiy-psixologik jihatdan o‘rganilgan dastlabki tadqiqotlardan biri bo‘lgan. Muallif o‘zining olib borgan tadqiqot obyekti sifatida nikohlar mustahkamligiga qarab yuqori ko‘rsatkichlarga ega bo‘lgan er-xotinlar hamda ajralish arafasida turgan juftliklardan iborat guruhlar tanlab olingan. Ikkala guruhlarda ham er-xotinlarning oiladagi funksiyalarini bajarishlarida bir-birlarini hissiy qo‘llab-quvvatlashlari, oilaviy qadriyatlarga yondashishlari va oilaviy rollarga nisbatan bo‘lgan yo‘l-yo‘riqlari o‘rtasidagi tafovut farqlari borligi ta‘kidlangan. Olim o‘zining tadqiqotlaridan kelib chiqib o‘zbek oilalarida farzandlarning borligi va ularning soni nikoh mustahkamligini ta‘minlovchi yana bir muhim omillardan biri hisoblanishini qayd etib o‘tgan. Shu bilan birga, an‘anaviy, milliy, oilaviy turmush tarzi, yo‘l-yo‘riqlar, yosh er-xotinlar munosabatlariga ota-onalarning aralashuvi, oilada rollar taqsimoti va ularning er-xotin tomonidan idrok qilinishi kabi xususiyatlarni bir tomonlama, salbiy omillar sifatida sanab o‘tgan bo‘lsa, ayollarning mavqeyi, ularning ijtimoiy faolligini ortishini esa ijobiy tomondan baholab o‘tgan².

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi. Xalqimizda milliy qadriyatlarga bo‘lgan e‘tibor kundan kunga ortib, o‘zbek oilasiga xos bo‘lgan bunday etnik xususiyatlar nikoh mustahkamligining ta‘sirini yanada ortib borishiga turtki bo‘lmoqda.

U.S. Saribayevaning “Oila barqarorligiga jinsiy-psixologik mutanosiblikning ta‘siri” nomli ishida bizning tadqiqotimiz mavzusidaga oid masalalar bayon etilgan. Mazkur ishda o‘zbek oilalarida er-xotinlarning jinsiy-psixologik mutanosibligi oila barqarorligiga ta‘siri hamda nomutanosiblik sabablari bo‘yicha tadqiqot ishlari olib borilgan.

Bugungi kunda yosh avlodni tarbiyalash hamda ularga oilaviy munosabatlar to‘g‘risida bilimlar berish asosiy dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Shuningdek, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda va turmush jarayonida yuzaga keladigan muammoli vaziyatlarning oldini olishda ularning asosiy ehtiyojlarini nimalar tashkil etishini motivlar belgilab beradi.

¹ Karimova V. Mehr va muruvvat oiladan boshlanadi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2004. – 28 b.

² Якубов Ю.А. О рассогласованности ролевого проведения супругов как фактор дестабилизации брака /На материале узбекской семьи. – В сб.:Актуализация личности в системе общественных отношений. – Москва, 1989. – С. 223-224.

***Emperik natijalar
tahlili asosida
muallif o'zbek
oilasidagi er-
xotinlarning o'zaro
munosabatlarida
“o'zaro-
tushunish”,
“emotsional
intilish”, “o'zaro
hurmat” kabi
omillar birgalikda
yashagan turmush
muddatining ortib
borishi bilan o'ziga
xos ko'rinishlarda
namoyon bo'lishini
ko'rsatib bergan.***

Er-xotinlarda o'zaro tushunish, hissiy yaqinlik va o'zaro hurmat qanchalik yuqori bo'lsa, ularning jinsiy-psixologik mutanosibliklari to'kis bo'lishi va oila barqarorligi kuzatilgan. Oila barqarorligini ta'minlashda, er-xotinning jinsiy mutanosiblikka erishishi uchun ularda o'zaro tushunish, hissiy yaqinlik va o'zaro hurmat darajasini oshirish lozimligi to'g'risida muhim xulosaga kelingan³.

Darhaqiqat, er-xotin o'rtasidagi o'zaro hurmat, o'zaro ishonch, ehtirom, mehr-muhabbat, hamfikrlilik, sadoqat va munosabatlarning samimiyligi oila mustahkamligini yanada oshirishga asos bo'lib xizmat qiladi.

O'zbek oilalarida er-xotin munosabatlari oilaviy turmush tajiga bog'liq ravishda o'zgarib borishining o'ziga xos ijtimoiy-psixologik xarakter jihatdan o'rganilgan tadqiqotlardan biri G.Niyazmetova tomonidan amalga oshirilgan. Er va xotin o'rtasidagi nikohdan qoniqqanlik darajasi, bir-birini tushunish, emotsional intilish, o'zaro hurmat oilaviy turmush jarayonida o'zgarib, rivojlanib boradigan dinamik jarayon ekanligi ifodalangan.

G.Niyazmetova o'z tadqiqotlarida o'zbek oilalarida er-xotin munosabatlarining shakllanishi va namoyon bo'lish dinamikasi oila-nikoh munosabatlaridagi etnik an'analarni aks ettiruvchi o'ziga xos psixologik xususiyatlar bilan bog'liq bo'lishi qayd etilgan bo'lib, er-xotinlarning birgalikdagi hayoti davomida shakllanadigan va namoyon bo'ladigan nikohdan qoniqqanlik, o'zaro tushunish, emotsional intilish, o'zaro hurmat, er-xotin o'rtasida oilaviy rollar taqsimoti xarakteri, bu taqsimotning er va xotin tomonidan baholanishi va shu kabilar oilaviy turmushning turli bosqichlarida o'zgarib borish kabi omillar sifatida ko'rsatib o'tgan.

Emperik natijalar tahlili asosida muallif o'zbek oilasidagi er-xotinlarning o'zaro munosabatlarida “o'zaro-tushunish”, “emotsional intilish”, “o'zaro hurmat” kabi omillar birgalikda yashagan turmush muddatining ortib borishi bilan o'ziga xos ko'rinishlarda namoyon bo'lishini ko'rsatib bergan⁴.

O'zbek oilasi psixologik xususiyatlarini o'rganishdagi muhim tadqiqotlardan biri N.A.Sog'inovning izlanishlarida ko'rsatib o'tilgan. Olimning “O'zbek oilalarida nikohdan qoniqqanlikning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari” nomli nomzodlik ishida o'zbek oilalaridagi er-xotinlar o'rtasidagi o'zaro tushunish, o'zaro hurmat va hissiy yaqinlik, juftliklarning nikohdan qoniqqanlik xususiyatlari kabi omillarning oila mustahkamligiga ta'siri, ularning o'zaro munosabatlarida nizolar paydo bo'lishining etnopsixologik komponentlari o'zbek etnosi misolida o'rganib chiqilgan. Ushbu ishda yoshlarning oila qurishdagi motivlari, nikoholdi omillari va nikohdan qoniqqanlik darajalari, juftliklar o'rtasida “o'zaro tushunish”, “emotsional intilish”, “o'zaro hurmat” ko'rsatkichlari shahar va qishloq oilalari misolida qayd etib o'tilgan nikohlar hamda ajralishgan juftliklar o'rganilgan.

³ Saribayeva U.S. Oila barqarorligiga jinsiy-psixologik mutanosiblikning ta'siri. Psixol. fan. nomz. ...diss. avtoref. – Toshkent: O'zMU, 2007. – 22 b.

⁴ Niyazmetova G. O'zbek oilalarida er-xotinlik munosabatlari dinamikasining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Psixol. fan. nomz. ...diss. avtoref. – Toshkent: O'zMU, 2010. – 87 b.

Shuningdek, er-xotinning nikohdan qoniqish darajasi oʻzaro hurmat, oʻzaro tushunish hamda hissiy munosabat bilan bogʻliqligi keltirib oʻtilgan.

Shuni alohida taʼkidlab oʻtish lozimki, keyingi yillarda olib borilayotgan ilmiy izlanishlarda oilaning keng qamrovli turli jihatlari oʻz aksini topib kelmoqda. Jumladan, X.Abdusamatovning “Nikohdan tashqari munosabatlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari” nomli dissertatsiyasida oilalarda nikohdan tashqari munosabatlarni keltirib chiqaruvchi “oʻzgani sevib qolish”, “moddiy ehtiyojni qondirish”, “jinsiy aloqaga majburiyat sifatida qarash” hamda “turmush oʻrtogʻidan jinsiy qoniqmaslik” kabi ijtimoiy-psixologik masalalar tadqiq etilgan⁵. Mazkur ishda, nikohdan tashqari munosabatlarni keltirib chiqaruvchi quyidagi sabablarni keltirib oʻtilgan:


- turmush oʻrtogʻi bilan boʻlgan jinsiy hayotdan qoniqmaslik;
- turmush oʻrtogʻiga nisbatan muhabbat hislari (simpatiya yoki umumiy qarama qarshi jinsga nisbatan boʻladigan ijobiy hislar)ning mavjud emasligi;
- ayollarda erkaklarga nisbatan hissiy yaqinlik ustunlik qilishi;
- oilaviy turmush staji boʻyicha farqlar mavjudligi;
- er-xotinlar orasidagi nizoli vaziyatlar;
- jinsiy savodsizlik;
- psixologik inqirozlar;
- jinsiy munosabatlar toʻgʻrisidagi bilim, koʻnikma va malakalar oʻrtasidagi tafovutlarni mavjudligi;
- turmush oʻrtoqlardan birining uzoq muddat xizmat safarida boʻlishi;
- ehtiyojlarning mos kelmasligi;
- moddiy va iqtisodiy motiv asosida qurilgan oilalar;
- sovcilik asosida shoshilinch qurilgan oilalar;
- spirtli ichimlik taʼsirida roʻy beradigan nikohdan tashqari munosabatlar;
- ayollardagi frigidlik;
- boshqa jins vakilini sevib qolishi;
- er-xotinlarda diniy maʼlumotlar deyarli mavjud emasligi;
- egallab turgan lavozimini asrab qolish, biror amal va lavozimga erishish uchun rahbar yoki bevosita boʻysinuvchi shaxs yoki ilmiy rahbar bilan jinsiy munosabatga kirishishi;
- erkaklarning koʻproq oilada oʻzini erkin tutishi va oʻzi xohlagan vaqtda boshqa ayollar bilan jinsiy aloqa qilishi;
- yoshlikdagi muhabbat hissi;
- ayol yoki erkakning biri bepusht boʻlsa, farzand koʻrish maqsadida;
- oiladagi nosogʻlom muhit;
- oiladagi surunkali janjallar.

Bundan tashqari, tadqiqotchi oiladagi er-xotinning emotsional munosabatlarini yanada keng koʻlamda aniqlash maqsadida olingan natijalar A.N. Volkovanning PEA metodikasi asosida 1990-yilda N.A.Sogʻinov, 2010-yilda G.I.Niyazmetova va 2019-yilda X.U.Abdusamatovlar tomonidan

⁵ Abdusamatov X. “Nikohdan tashqari munosabatlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari”. Psixol. fan. nomz. ...diss. – Toshkent, 2019. – 163 b.

X.Abdusamatovning “Nikohdan tashqari munosabatlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari” nomli dissertatsiyasida oilalarda nikohdan tashqari munosabatlarni keltirib chiqaruvchi “oʻzgani sevib qolish”, “moddiy ehtiyojni qondirish”, “jinsiy aloqaga majburiyat sifatida qarash” hamda “turmush oʻrtogʻidan jinsiy qoniqmaslik” kabi ijtimoiy-psixologik masalalar tadqiq etilgan.

solishtirib chiqildi. Metodikaning o‘zaro hurmat, o‘zaro tushunish, hissiy intilish omillari N.A. Sog‘inov tomonidan qishloq va shaharning muvaffaqiyatli oilalar ko‘rsatkichlariga, G.I.Niyazmetova tomonidan oilalarni to‘rt guruhga hamda X.U.Abdusamatov tomonidan oilalarni uch turdagi turmush stajiga ega oilalar natijalari ajratib ko‘rsatib o‘tildi. Diagrammadagi natijalardan ko‘rinib turibdiki, bugungi kunga kelib, ushbu ko‘rsatkichlar pasayib borishi, oilalardagi er-xotin munosabatlarida nizoli vaziyat ortishi ajrimlarning ko‘payishiga olib keladi.



1-rasm. N.A.Sog‘inov, G.I.Niyazmetova va X.U.Abdusamatovlarning tadqiqotlarida olingan A.N.Volkovning PEA metodikasi bo‘yicha natijalarning solishtirma ko‘rsatkichlari

O‘zaro tushunish omili N.A. Sog‘inov ishlarida 23,99 ballni tashkil etgan bo‘lsa, G.I. Niyazmetovada bu ko‘rsatkich 21,06 ballni, X.U.Abdusamatov ishlarida esa 20,6 ballni tashkil etgan. Hissiy intilish omili bo‘yicha N.A. Sog‘inov tadqiqotlarida 26,17 ballni, G.I. Niyazmetovaning tadqiqot ishlarida 25,34 ballni, X.U. Abdusamatov tadqiqotlarida esa 20,28 balli natijani ko‘rishimiz mumkin. Shuningdek, o‘zaro hurmat omili N.A. Sog‘inovda 24,97 ballni, G.I. Niyazmetovada 22,76 ballni, X.U. Abdusamatovda esa 19,34 ballni tashkil etdi.

Natijalardan shuni ko‘rishimiz mumkinki, oxirgi yillar ichida oilalardagi er-xotinning emotsional munosabatlarini tashkil etuvchi ushbu omillarning pasayib bormoqda.

Bundan tashqari, X.Abdusamatov o‘zining “Migrant oilalarning ijtimoiy-psixologik muammolari va yechimlari” nomli dissertatsiyasida migrant oilalardagi ijtimoiy-psixologik xususiyatlar, migrant oila muammolari va migrant oila farzandlarini rivojlanish xususiyatlari tahlil qilgan⁶.

⁶ Abdusamatov X. Migrant oilalarning ijtimoiy-psixologik muammolari va yechimlari. Psixol. fan. nomz. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2022. – 17 b.

Ushbu tadqiqotga Andijon, Samarqand hamda Farg'ona viloyatlaridagi 287 ta migrant oila, 173 ta migrant bo'lmagan oila hamda 150 nafar o'smir yoshdagi migrant oila farzandi jalb qilingan.

Psixologik metod sifatida L.Y.Gozman va Y.E.Aleshinalar tomonidan modifikatsiya qilingan "Simpatiya va sevgi shkalasi" metodikasidan foydalangan holda, sevgi va simpatiya shkalalari orasida o'rtacha rang qiymatiga ko'ra, Farg'ona viloyatida yashovchi migrant oilalaridagi er-xotinlar o'rtasidagi o'zaro sevgi simpatiya (sevgi shkalasi – 51,19, simpatiya shkalasi esa 54,78) tuyg'ulari boshqa viloyat migrant oilalariga nisbatan past ekanligi ko'rsatilgan. Andijon viloyati migrant oilalarida bu shkalalar bo'yicha ko'rsatkichlar yuqori ekanligi aniqlangan (sevgi shkalasi – 154,11 simpatiya shkalasi esa 156,12).

Migrant bo'lmagan oilalarning simpatiya va sevgi shkalasi bo'yicha o'rtacha rang ko'rsatkichlarida ham aynan Farg'ona viloyatidagi oilalarda er va xotin o'rtasidagi emotsional munosabatlar past ekanligi aniqlangan (sevgi shkalasi – 48,51, simpatiya shkalasi – 51,33).

Andijon viloyatining migrant bo'lmagan oilalarining qadriyatlar tizimida ham o'ziga xoslik kasb etgan bo'lib, migrant bo'lmagan oilalar uchun sevgi qadriyati asosiy ustuvor qadriyatlardan biri sifatida qaralib, bu oilaviy turmush, er-xotin munosabatlarini "stabilizatsiya" qiluvchi yashirin mexanizm bo'lib xizmat qilishi ta'kidlangan.

Migrant oilalarda er-xotinning bir-biriga nisbatan muhabbati, sevgisi, empatiyasi kabi munosabatlar ko'rsatkichlari bo'yicha barqarorlikning kuzatilishi natijasida juftliklarda hamkorlik asosini tashkil etuvchi simpatiya tuyg'usining ortishiga olib keladi ($r=0,781$; $p\leq 0,01$). Shu bilan birga, juftliklarni bir-biridan qoniqmasligi, hayotiy mazmunni topolmaslik natijasida o'zidan "nafratlanish", ehtiyojlarning ortishi bilan imkoniyatlarni to'g'ri baholamaslik, ichki "men"i bilan kurashga sabab bo'luvchi frustratsiya darajasining pasayishiga olib boradi ($r=-0,355$; $p\leq 0,01$). Bundan tashqari, ishqiy munosabatlarning ortishi hayotga real qarashni va o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmasining ham pasayishiga olib kelar ekan ($r=-0,149$; $p\leq 0,05$). Shaxsning o'zini erkin his qilishi hayot ne'matlaridan zavqlanishi voqea-hodisalarga ijobiy ko'z bilan nazar solish motivlarining pasayishiga olib keluvchi sabablardan biri bo'lishini, olingan natijalar asosida aniqlanganini ko'rib o'tishimiz mumkin. Er-xotinning begona yurtida, bir-biridan olisda bo'lishiga qaramasdan har birining ichidan o'tayotgan his-tuyg'ularini anglashi, dalda bo'lishi ortib borsa, migrantlarning o'z hayot yo'llarida duch kelayotgan qiyinchiliklar oldida tiz cho'kishi, umidsizlikka tushishi natijasida o'ziga bo'lgan bahoning tushib ketishi kamayishiga olib kelar ekan ($r=-0,348$; $p\leq 0,01$). Tadqiqot natijasida olingan bu bog'likliklar er-xotin munosabatlari tizimida bo'lishi migrant oilalarida xiyonat, ajralish kabi motivlarning paydo bo'lishini keskin kamaytirishi mumkin ekanligi tadqiqotchi tomonidan ta'kidlab o'tilgan.

Emperik natijalar tahlili asosida muallif migrant va migrant oilalarda ham er va xotin o'rtasidagi "hissiy yaqinlik" darajasi past ekanligi ajrimlarning ortishiga sabab bo'layotgani bilan izohlab o'tgan.

Er-xotinning begona yurtida, bir-biridan olisda bo'lishiga qaramasdan har birining ichidan o'tayotgan his-tuyg'ularini anglashi, dalda bo'lishi ortib borsa, migrantlarning o'z hayot yo'llarida duch kelayotgan qiyinchiliklar oldida tiz cho'kishi, umidsizlikka tushishi natijasida o'ziga bo'lgan bahoning tushib ketishi kamayishiga olib kelar ekan

Bundan tashqari, tadqiqotchi migrant va migrant bo'lmagan oilalarda ijtimoiy frustratsiya darajasini ham solishtirib o'tgan. Bunda migrant oilalarning ko'rsatkich natijalari tahlil qilinganda, Farg'ona viloyatida migrant oilalarda ijtimoiy frustratsiya ko'rsatkichi 190,66 ni, Andijon viloyatida 114,91 ni, Samarqand viloyatida esa 112,34 ni tashkil etan. Ko'rsatkichlardan ko'rinib turibdiki, Farg'ona viloyatidagi migrant oilalarda ijtimoiy frustratsiya darajasi boshqa viloyatlardagi migrant sinaluvchilarga nisbatan yuqori bo'lgan. Muallif ushbu ko'rsatkichning yuqori bo'lishini, ushbu viloyatda aholining zich joylashgani, shuningdek, migrantlarning ko'proq bitta mamlakat hududiga migratsiyaga ketishi va mehnat migratsiyasining asosiy faoliyatini, asosan, xo'jalik, xizmat ko'rsatish va yollanma ishlarga yo'nalganligi bilan izohlagan.

Yakuniy qism. Xulosa o'rinda shuni aytish joizki, o'zbek psixolog olimlari tomonidan o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, oxirgi yillar ichida oilalardagi er-xotinning emotsional munosabatlarini tashkil etuvchi ushbu omillarning pasayib borayotganini ko'rishimiz mumkin. Bunga yana bir omil migratsiya natijasida ham biz oilaning asosiy psixologik xususiyatlarini, masalan, turmush o'rtoqlarning nikohdan qoniqishi, emotsional munosabatlari, oilaviy rollarining tuzilishi, oiladagi nizolari, bolalar va ota-onalar munosabatlari va oilaning psixologik iqlimida o'zgarishlar ko'rishimiz mumkin. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, oila kichik guruh sifatida xarakterlanar ekan, migrant oilalarida nikohdan qoniqish darajasi pastligi, moddiy va maishiy muammolar paydo bo'lishi oilada nizolarning ko'payishiga sabab bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimova V. Mehr va muruvvat oiladan boshlanadi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2004. – 28 b.
2. Якубов Ю.А. О рассогласованности ролевого проведения супругов как факторе дестабилизации брака / На материале узбекской семьи. – В сб.: Актуализация личности в системе общественных отношений. – Москва, 1989. – С. 223–224.
3. Saribayeva U.S. Oila barqarorligiga jinsiy-psixologik mutanosiblikning ta'siri. Psixol. fan. nomz. ...diss. avtoref. – Toshkent: O'zMU, 2007. – 22 b.
4. Niyazmetova G. O'zbek oilalarida er-xotinlik munosabatlari dinamikasining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Psixol. fan. nomz. ...diss. avtoref. – Toshkent: O'zMU, 2010. – 87 b.
5. Abdusamatov X. "Nikohdan tashqari munosabatlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari" Psixol. fan. nomz. ...diss. – Toshkent, 2019. – 163 b.
6. Abdusamatov X. Migrant oilalarning ijtimoiy-psixologik muammolari va yechimlari. Psixol. fan. nomz. ...diss. avtoref. – Toshkent, 2022. – 17 b.